



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 241-248 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

EKSPORT SALOHIYATI RAQAMLI IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASINING TASHQI BELGISI SIFATIDA



Saatova Lolaxon Ergashevna,

i.f.f.d.(PhD), dotsent,

O'zbekiston Respublikasi

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Harbiy aviatsiya instituti,

Taktika va maxsus fanlari kafedrası,

Axborot texnologiyalari sikli professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston milliy iqtisodiyoti raqamli transformatsiyasining tashqi belgilari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida AKT va IT-xizmatlar eksporti hajmining diversifikatsiyasi, rezident kompaniyalar rivojlanish dinamikasi va tahlil qilingan. Maqolada milliy raqamli mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning global mavqeini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, eksport salohiyati, IT-Park, global raqobatbardoshlik, rezident kompaniyalar, eksporti hajmi, Elektron hukumat, IT-outsorsing, , raqamli transformatsiya, tashqi belgilar, diversifikatsiya.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются внешние признаки цифровой трансформации национальной экономики Узбекистана. В ходе исследования проведены диверсификация объемов экспорта ИКТ и ИТ-услуг, динамика развития компаний-резидентов и анализ ситуации. В статье разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности отечественной цифровой продукции на международных рынках и укрепление глобальных позиций национальной экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, экспортный потенциал, ИТ-парк, глобальная конкурентоспособность, компании-резиденты, объем экспорта, электронное правительство, ИТ-аутсорсинг, цифровая трансформация, внешние показатели, диверсификация.

Abstract: This article systematically analyzes the external signs of the digital transformation of Uzbekistan's national economy. The study examines the diversification of ICT and IT services export volumes, the development dynamics of resident companies, and a situational analysis. The article develops scientific and practical proposals and recommendations aimed at increasing the competitiveness of domestic digital products in international markets and strengthening the national economy's global position.

Keywords: digital economy, export potential, IT park, global competitiveness, resident companies, export volume, e-government, IT outsourcing, digital transformation, external indicators, diversification.

KIRISH

Global geoiqtisodiy transformatsiyalar va xalqaro mehnat taqsimotining yangi arxitektonikasi shakllanayotgan hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi an'anaviy ishlab chiqarish omillari (yer, tabiiy resurslar, arzon mehnat kuchi) bilan emas, balki raqamli mahsulot va xizmatlar bozoridagi ulushi hamda global qiymat zanjirlariga (Global Value Chains) integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanmoqda [3], [12]. Zamonaviy xalqaro savdo nazariyalari kontekstida raqamli eksport fenomeni mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi va tashqi shoklarga nisbatan imunitetini oshiruvchi eng dinamik soha sifatida e'tirof etilmoqda [5, 18, 19]. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xomashyoga yo'naltirilgan an'anaviy eksport modellaridan bilimlar va intellektual mulkka asoslangan yuqori texnologik eksport modellariga o'tish imkonini beruvchi tizimli transformatsiya hisoblanadi [7].

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda ochiq iqtisodiyot siyosatini yuritish, tashqi savdoni diversifikatsiya qilish va milliy mahsulotlarning global miqyosdagi jozibadorligini oshirish yo'lini tanladi. Mamlakat iqtisodiy xaritasida raqamli sektorning jadal namoyon bo'lishi faqatgina ichki jarayonlarni mahalliy darajada avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki tashqi iqtisodiy faoliyatning yangi vektorlarini shakllantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohani rivojlantirishga doir strategik farmon va qarorlari, xususan, milliy raqamli dasturlarning amaliyotga izchil joriy etilishi natijasida respublikada texnologik autsorsing va dasturiy injiniring xizmatlarining mutlaqo yangi iqtisodiy arxitektonikasi vujudga keldi [1]. Bu jarayon milliy iqtisodiyotning tashqi konturlarida eksport hajmining tuzilmaviy sifat o'zgarishlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda [9].

Keltirib o'tilgan omillar va mavjud disbalanslar raqamli iqtisodiyot transformatsiyasining tashqi belgilarini, uning eksport salohiyatini oshirish omillarini va global raqobatbardoshlik mezonlarini tizimli ravishda, iqtisodiy-statistik hamda qiyosiy tahlil metodlari vositasida tadqiq etishning naqadar dolzarbligini belgilaydi. Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston raqamli sektorining tashqi bozorlardagi strategik imkoniyatlari va institutsional to'siqlarini baholash orqali, milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini uzoq muddatli istiqbolda ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyotning evolyusion rivojlanish bosqichlari va uning tashqi iqtisodiy tarkibini, xususan, eksport salohiyati va global raqobatbardoshlik nazariyalarini o'rganish maqsadida xalqaro va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tizimlashtirildi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tushuncha oddiy texnologik jarayondan xalqaro savdoni harakatlantiruvchi makroiqtisodiy ekvivalentgacha bo'lgan transformatsiya yo'lini bosib o'tdi.

Global tarmoqlashish va raqamli iqtisodiyotning xalqaro bozordagi o'rnini nazariy asoslashda raqamli kapitalizm va globallashtirish muammolarini tadqiq etgan Manuel Kastelsning (Manuel Castells) fundamental qarashlari muhim poydevor hisoblanadi [4]. Olim raqamli iqtisodiyotni lokal tizim emas, balki axborot oqimlari va global tarmoqlangan infratuzilmalar ustiga qurilgan yangi geoiqtisodiy arxitektonika sifatida ta'riflaydi. M. Kastels yangi iqtisodiy modelning asosiy xususiyatlari sifatida global

xususiyat, tarmoqli tuzilish va bilimlar transferini ko'rsatib, ular an'anaviy xalqaro mehnat taqsimotini tubdan o'zgartirishini asoslab bergan.

Milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi raqobatbardoshligi va raqamli transformatsiyasi mahalliy olimlarimiz tomonidan ham yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Xususan, iqtisodchi olimlar Sh.X. Nazarov va B.A. Begalovlarning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot makroiqtisodiy tizim sifatida baholanib, u «innovatsion texnologiyalar yordamida milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini va global qiymat zanjiridagi ishtirokini ta'minlovchi omil» sifatida talqin etiladi [2, 8, 11]. Ularning tadqiqotlarida raqamli xizmatlar eksportini rag'batlantirish va milliy AT-infratuzilmani xalqaro standartlarga moslashtirish masalalariga alohida urg'u berilgan.

Biroq, milliy adabiyotlarning umumiy dinamikasi shuni ko'rsatadiki, ko'plab mahalliy izlanishlarda raqamli transformatsiya jarayonlari hamon ko'proq ichki texnik-infratuzilmaviy omillar (ichki bozorni avtomatlashtirish) kontekstida o'rganilmoqda. Iqtisodchi olimlar T.Z. Teshabaev va D.K. Kudbievlar o'z tadqiqotlarida raqamli ekotizimning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilar ekanlar, xalqaro darajadagi raqamli tafovutni (digital divide) kamaytirish va milliy raqamli mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqishidagi institutsional to'siqlarni bartaraf etishning strategik zarurligini ko'rsatib o'tadilar [15], [18].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot tushunchasi bugungi kunda faqatgina ichki axborot almashinuvi bilan cheklanib qolmay, balki raqamli inson kapitali, AT-xizmatlar eksporti va xalqaro iqtisodiy integratsiyani belgilovchi global makroekotizimga aylandi. Ushbu maqolada biz yuqoridagi yangi ilmiy qarashlarga tayangan holda, O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning ichki belgilari va tashqi belgilarini o'zaro bog'liqlikda va geoiqtisodiy kontekstda tahlil qilamiz.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy poydevorini xalqaro raqamli savdo nazariyalari, global qiymat zanjirlari konsepsiyalari hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Maqolada belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish hamda O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti rivojlanishining tashqi belgilarini baholash maqsadida bir qator an'anaviy va zamonaviy metodlar majmuidan tizimli ravishda foydalanildi. Xususan, respublikada IT-xizmatlar eksportining real hajmi va sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining o'sish sur'atlarini yillar kesimida qiyosiy o'rganishda iqtisodiy-statistik hamda dinamik qatorlar tahlili usullari qo'llanildi.

Milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshlik darajasini aniqlash hamda O'zbekiston raqamli ekotizimining rivojlanish ko'rsatkichlarini MDH davlatlarining mos indikatorlari bilan solishtirish maqsadida indeksli baholash, tizimli va qiyosiy tahlil metodlaridan unumli foydalanildi. Bunda mamlakatning xalqaro maydondagi mavqei BMT va Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan e'lon qilinuvchi nufuzli indekslar (EGDI, IDI) asosida tizimlashtirildi. Tadqiqotning ishonchli axborot-empirik bazasini shakllantirishda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, IT-Park rasmiy hisobotlari hamda Jahon banki va BMTning xalqaro statistik to'plamlari ma'lumotlariga tayanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Mamlakat iqtisodiy tizimining raqamli transformatsiyasi faqatgina ichki bozor kon'yunkturasi bilan cheklanib qolmasdan, balki uning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va global raqobatbardoshlik darajasi bilan ham belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining jahon raqamli xaritasidagi strategik o'rnini ifodalovchi tashqi belgilar va makroiqtisodiy indikatorlar tizimi so'nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu tendensiyalarni uchta asosiy yo'nalish kesimida ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yo'nalish AKT va IT-yeksport hajmining diversifikatsiyasi va traektoriyasi bo'lib, milliy raqamli mahsulotlarning tashqi bozorlarda tan olinishi va tarmoqning eksport salohiyati IT-Park rezidentlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar eksportining dinamikasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu ko'rsatkich milliy raqamli ekotizimning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini ko'rsatuvchi eng muhim ekzogen omil hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agar 2019 yilda mahalliy IT-mahsulotlar va raqamli xizmatlar eksportining umumiy hajmi \$15,8 mln dollarni tashkil etgan bo'lsa, raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish va rezidentlarga berilgan soliq hamda bojxona imtiyozlari natijasida 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich \$1 000 mln dollardan oshdi. 2025 yil yakunlari bo'yicha esa ushbu trendning \$1,5 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bunday yuqori sur'atli o'sish traektoriyasi respublikaning nafaqat ichki raqamli ehtiyojlarini qondirish, balki Markaziy Osiyo mintaqasida yirik raqamli xab (Digital Hub) sifatida namoyon bo'layotganidan dalolat beradi.

Ilmiy tadqiqot doirasida ushbu tashqi belgilarning sifat va miqdor jihatdan rivojlanish zanjirini tizimlashtirish maqsadida quyidagi 1-jadvalda iqtisodiy-statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

1-jadval


O'zbekiston Respublikasida IT-xizmatlar eksporti va rezident kompaniyalar rivojlanishining real dinamikasi

t/r	Yillar	Eksport hajmi (mln. AQSh doll.)	Rezident kompaniyalar soni (dona)	Eksport qilinayotgan davlatlar soni
1.	2019 yil	15,8	350	12
2.	2021 yil	46,0	520	25
3.	2023 yil	344,0	1 650	50
4.	2024 yil	572,0	2 411	68
5.	2025 yil	853,0	3 140	85

Izoh: 2019–2025 yillar uchun ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va IT-Park kompaniyasining yakuniy yillik rasmiy hisobotlari asosida real fakt raqamlar asosida muallif tomoni dan shakllantirildi.


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda raqamli ekotizimining tashqi iqtisodiy konturi va eksport salohiyati so'nggi yillarda sifat jihatidan tubdan transformatsiyaga uchragan. Xususan, 2019 yilda IT-xizmatlar eksporti bor-yo'g'i

15,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 572,0 mln. AQSh dollariga, 2025 yilgi real hisobotlarga ko'ra esa 853,0 mln. AQSh dollariga yetgan. Bu esa tadqiq etilayotgan davrda eksport hajmining qariyb 54 barobarga geometrik sur'atlarda o'sganligini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida IT-xizmatlar eksporti va rezident ko'mpaniyalar rivojlanish dinamikasi²

Mazkur makroiqtisodiy o'sish traektoriyasi IT-Park rezident kompaniyalari sonining jadal kengayishi (2019 yildagi 350 tadan 2025 yilda 3 140 tagacha) va eksport geografiyasining diversifikatsiya qilinishi (12 ta davlatdan 85 ta davlatgacha) bilan bevosita korrelyatsiyalanadi. Empirik ma'lumotlar shuni isbotlaydiki, milliy raqamli mahsulotlarning tashqi bozorlardagi mavqei prognoz ko'rsatkichlaridan real fakt indikatorlariga izchil o'tib, mamlakat iqtisodiyotining xalqaro miqyosdagi texnologik jozibadorligini ta'minlamoqda.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida eksport qilinayotgan davlatlar dinamikasi³

² O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

MUHOKAMA

Empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning raqamli transformatsiyasi tashqi konturda jadal sur'atlar bilan namoyon bo'lmoqda. Agar M. Kastelsning global tarmoqlangan infratuzilmalar nazariyasi [4] nuqtai nazaridan yondashilsa, O'zbekiston xalqaro AT-outsorsing oqimlarida o'z "tugunlari" (nodes) va yirik mintaqaviy xabini shakllantira oldi. Maqolada aniqlangan IT-xizmatlar eksportining 2019 yildagi 15.8 mln dollardan 2025 yilda 853.0 mln dollargacha (qariyb 54 barobarga) o'sishi Martin Kleyn va Robert Atkinson tomonidan ilgari surilgan "transchegaraviy elektron xizmatlar eksporti" drayverining real iqtisodiy isbotidir [6, 14].

Biroq, xalqaro AT-bozorining rivojlanish qonuniyatlari ushbu miqdoriy o'sish orqasida bir qator tizimli muammolar va disbalanslar mavjudligini ko'rsatadi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning (UNCTAD, OECD) raqamli rivojlanish hisobotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli eksportning o'sishi ko'pincha "past qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan xizmatlar" (masalan, texnik qo'llab-quvvatlash, oddiy kodlash, Call-center xizmatlari) hisobiga yuz beradi [11, 16, 17]. O'zbekistonning IT-eksport tuzilmasida ham haligacha Brukings instituti mezonlari bo'yicha "yuqori texnologiyali mahsulot va murakkab dasturiy injiniring" (High-tech software product development) ulushi nisbatan past bo'lib, asosiy ulush outsorsing (BPO - Business Process Outsourcing) xizmatlariga to'g'ri kelmoqda.

Mahalliy olimlardan Sh.X. Nazarov va B.A. Begalovlar ta'kidlaganidek, milliy mahsulotlarning global qiymat zanjiridagi ishtiroki faqatgina kadrlar soni bilan emas, balki ularning xalqaro bozordagi institutsional barqarorligi bilan belgilanadi [2, 9, 10]. Bizning tadqiqotimizda aniqlangan muhim muammolardan biri – eksport geografiasining konsentratsiyalashuvidir. IT-xizmatlar eksportining qariyb 70-75 foizi hamon bitta qutbga – AQSh bozoriga to'g'ri kelmoqda. Bu holat milliy raqamli sektorning global geosiyosiy va iqtisodiy tebranishlarga nisbatan zaifligini (vulnerability) oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston milliy iqtisodiyoti raqamli transformatsiyasining tashqi belgilarini tizimli va iqtisodiy-statistik tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Milliy AT-sektorning eksport salohiyati chiziqli rivojlanish traektoriyasidan eksponensial o'sish bosqichiga o'tdi (2019-2025 yillarda eksport 54 barobarga oshdi). Bu raqamli infratuzilma sifatining (internet tezligi 9 barobarga ortdi) yaxshilanishi bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega.

2. Xalqaro reytinglarda (BMT, Jahon banki, ITU) mamlakatimiz "Juda yuqori rivojlangan" va "Lider mamlakatlar (A-guruhi)" blokidan mustahkam o'rin oldi.

Mavjud institutsional muammolar va qutblashishni bartaraf etish hamda uzoq muddatli istiqbolda global raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

• **IT-eksport tuzilmasini sifat jihatdan modernizatsiya qilish:** "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida rezident kompaniyalarni oddiy AT-outsorsing (BPO) bosqichidan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor dasturiy mahsulotlar

³ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

(SaaS, AI-injining) eksportiga o'tkazishni rag'batlantirish, buning uchun mualliflik va intellektual mulkni himoya qilishning xalqaro kafolatlarini kuchaytirish lozim.

• **Eksport geografiasini diversifikatsiya qilish:** AQSh bozoriga bo'lgan kuchli bog'liqlikni kamaytirish maqsadida, Yevropa Ittifoqi (MDH davlatlari tajribasini inobatga olgan holda), Yaqin Sharq (BAA, Saudiya Arabistoni) va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining raqamli bozorlariga chiqish uchun davlat darajasida "AT-diplomatiya" dasturlarini ishlab chiqish kerak.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi faqat ichki infratuzilmani rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki global raqamli makonga ekzogen integratsiyalashuv qonuniyatlari asosida kechmoqda. AKT va IT-xizmatlar eksportining diversifikatsiyasi, IT-Park rezidentlari faoliyatining kengayishi mamlakatning xalqaro reytinglardagi mavqeini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq, institutsional to'siqlarni bartaraf etish va hududlararo raqamli tafovutni kamaytirish istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishning bosh mezon bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi «"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va..." PF-6079-son Farmoni.
2. Begalov B.A. va boshq. (2023). Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida statistik indikatorlar tizimini takomillashtirish. Ilmiy monografiya. Toshkent.
3. Gereffi, G. (2019). *Global Value Chains and Development: Redefining the Contours of 21st Century Capitalism*. Cambridge University Press.
4. Kastels M. (2000). *Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshchestvo i kultura* / Per. s angl. pod red. O. I. Shkaratana. — M.: GU VShE.
5. Baldwin, R. (2016). *The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization*. Harvard University Press.
6. Atkinson, R. D., & Ezell, S. J. (2012). *Innovation Economics: The Race for Global Advantage*. Yale University Press.
7. Tapscott, D. (2014). *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill.
8. Nazarov Sh.X. (2022). Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning strategik yo'nalishlari. *Iqtisodiyot va ta'lim jurnallari*.
9. Saatova L. E. (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali boshqarishning o'ziga xos vazifalari. *Ilmiy jurnal matnlari*.
10. Saatova L. E. (2026) Development Trends of the Digital Economy in Uzbekistan: Internal Features end Forecast Indicators. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 39(1), 388–395. <https://doi.org/10.51699/economics.v39i2.1126>
11. UNCTAD. (2023). *Digital Economy Report: Value Creation and Insights for Developing Countries*. United Nations Publications.
12. World Bank. (2016). *World Development Report 2016: Digital Dividends*. Washington, DC: World Bank.
13. Klein, M. (2020). Digital Trade and Global Value Chains: New Macroeconomic Drivers. *Journal of International Economics*, 45(2), 112-128.

14. IT-Park Uzbekistan. (2024). Annual Export and Human Capital Integration Report. Official Statistics.
15. Teshabaev T.Z. (2021). Axborot sohasida inson kapitali va raqamli tafovut muammolari. Raqamli texnologiyalar rivojlanish tendensiyalari.
16. OECD. (2024). OECD Digital Economy Outlook 2024. OECD Publishing, Paris.
17. Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
18. Kudbiev D.K. (2024). Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalarining eksport salohiyatini institutsional qo'llab-quvvatlash. Biznes-ekspert jurnali.
19. United Nations. (2024). UN E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. New York.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

